

## Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida ma'lumot 2014-yilning yakuniy holatiga

**2015-yil 30 yanvar kuni viloyat hokimligining katta majlislar zalida 2014 yilda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan viloyat hokiminingyilliktahliliyima'ruzasi**

2014 yil mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida juda katta ijobiy o'zgarishlar yili bo'lib, tarix zarvarog'larida munosib muhrlandi. Dunyodagi eng nufuzli halqaro tashkilotlar Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov rahnomoliklarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalari yuqori baholanib, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallayotganligi va iqtisodiyotni raqobatbardoshligi yildan-yilga mustahkamlanayotganligini e'tirof etmoqdalar.

Bugungi yig'ilishimizning kun tartibiga kiritilgan bir qator ustuvor vazifalar ijrosini nafaqat tanqidiy tahlilini, balki 2015 yilda iqtisodiy dasturni amalga oshirishning ustuvor vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek, birinchi chorakda barcha sohalarda ishlarni jadal davom ettirish uchun mustahkam poydevorni ta'minlash bo'yicha rejalarimizni belgilab olamiz.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov tomonlaridan Vazirlar Mahkamasining majlisida **"O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishildi"** deb ta'kidladilar.

O'tgan yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti **8,4 foizga**, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi **10,2 foizga**, shu jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **7,0 foizga**, qishloq xo'jaligi mahsulotlari **6,7 foizga**, chakana tovar aylanmasi **13,3 foizga** va xizmatlar ko'rsatish **19,2 foizga** o'sdi.

Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi **2,8 mln. so'mni** tashkil etib, o'tgan 2013 yilga nisbatan **107 foizga oshdi**.

Farg'ona viloyati **mahalliy byudjet**ining daromadlari 2014 yilda 2008 yilga nisbatan **3,5 martaga**, harajatlar esa **3,3 martaga** ortdi. Soliq va majburiy to'lovlardan mahalliy byudjetga tushgan mablag'lar 2008 yilda **451 mlrd. so'mni** tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yilda **1506 mlrd. so'mga** etib **3,4 martaga** oshdi va mahalliy byudjetga qoladigan qismi **3,1 barobarga** ko'paydi.

**Mahalliy byudjet** harajatlari jami **1822 mlrd. so'mni** tashkil etib, ushbu mablag'larning **80 foizi** yoki **1460 mlrd. so'mi** ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash harajatlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash** va tadbirkorlik faoliyati yo'lidagi ma'muriy to'siqlarni qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hisobiga yil boshidan buyon **2,5 mingta** yangi kichik biznes va **6,3 mingta** xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. **14 mingga yaqin** tadbirkorlik sub'ektlarigatijorat banklari tomonidan **600,6 mlrd.so'mlik** kredit mablag'lari, **702 ta** sub'ektlarga **er uchastkalari ajratildi**, **842 ta** sub'ektlar **elektr** ta'minotiga, **76 ta** sub'ektlar **gaz** tarmoqlariga va **511 ta** sub'ektlar **ichimlik suvi** tarmoqlariga ulanishiga amaliy yordam ko'rsatildi.

Natijada, kichik biznes sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **21 foizdan 28 foizga** o'sdi va ushbu sektorning viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushini **61,1 foizdan 62,1 foizgacha** ko'payshiga sharoit yaratdi. Ular tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari soni

**69 mingdan ortib**, bandlikdagi ulushi **78 foizga** etdi.

Viloyatda iqtisodiyotida muhim va rivojlanishi ustuvor sohasi sifatida **aholiga xizmat ko'rsatish va servisni** tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda xizmat ko'rsatish va servis ob'ektlarini zamonaviy arxitektura talablariga mos bo'lgan namunaviy loyihalar asosida g'uzar, ayollar go'zallik va sog'lomlashtirish uylari, sartaroshxona, poyafzal va maishiy ~~texnika ta'mirlash ustaxonalari hamda boshqa zamonaviy xizmat turlari bo'yicha qurilish ishlari~~ amalga oshirilmoqda.

Ushbu ob'ektlar uchun zarur er maydoni va binolarni ajratilishi, ularni qurish va jihozlash, moliyalashtirish, foydalanishga topshirish muddatlari va mas'ullarni aniq belgilanishi sohani rivojiga asos

---

bo'ldi.

Birgina 2013-2014 yillarda **4854 ta** xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil etilib, foydalanishga topshirildi. Buning hisobiga **15 mingga yaqin** yangi ish o'rinlari yaratildi.

Alohida e'tibor **"Ayollar go'zallik va sog'lomlashtirish uylari"** ni tashkil etilishiga qaratilib, bugungi kunda ularning soni 70 tadan ortdi. Shunday barcha sharoitlarga ega Oltiariq tumanidagi "Sog'lom ayol markazi" **8 ta** yo'nalishda (salon, sog'lomlashtirish maslaxatxonasi, fitnes, ayollar uchun sauna, fitobar, kasbga o'qitish, biznes inkubator hamda ayollarga yuridik xizmatlar ko'rsatish) bir kunda 100 nafardan ortiq xotin-qizlarga xizmatlar ko'rsatmoqda. Huddi shunday **"Ayollar guzallik va sog'lomlashtirish uylari"** Beshariq, O'zbekiston, Buvayda, Farg'ona, So'x, Yozyovon va boshqa tumanlarda ham samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Natijada, viloyat yalpi hududiy mahsulot tarkibida xizmatlarning ulushi **46,0 foizdan 48 foizga** ko'paydi.

Aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha **"Sog'lom bola yili" Davlat dasturi** tadbirlarini faol ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Davlat dasturi doirasida joriy yilda barcha manbalar hisobidan **687 mlrd.so'm, 43 mln AQSh dollari va 305 ming evro, sarflanishi belgilangan yillik mablag'larning 110 foizi miqdorida mablag'lar o'zlashtirildi.**

Joriy yilda **yangi ish o'rinlarini tashkil etish** va aholi bandligini ta'minlash dasturining ijrosini muhim ustuvor vazifa sifatida o'zimizga belgilab olganmiz. Tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 2014 yilda **93 ming yaqin** yangi ish o'rinlarini tashkil etish ta'minlandi, ulardan **69 mingtadan** ortig'i yoki **71 foizi** qishloq joylarda tashkil etildi.

Hududiy mehnat bozoridagi vaziyat barqaror saqlanib, band aholi soni **1mln. 462 ming** nafarga etib (*mehnatqilish qobiliyatiga ega 2 mln. 4 ming nafar kishiga nisbatan 73%*), ishsizlik darajasi **5,0foizgachap**asaydi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2013-2014 o'quv yilida **60 ming 903 nafar** bitiruvchilarning **60 ming nafarini** bandligi ta'minlandi. Ularning **1554 nafari** oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdilar.

Alohida ta'kidlab o'tmoqchiman, tijorat banklari tomonidan bitiruvchilarga **25,7 mlrd. so'm** miqdorida yoki o'tgan yilga nisbatan **1,5 karra** ko'p imtiyozli kreditlar ajratilib, **7 mingdan** ortiq bitiruvchilarni o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashlariga ko'maklashildi.

Bugun o'zimizda ishlab chiqarilayotgan **oziq-ovqat iste'mol tovarlari** hajmlari va assortimentini **120 foizga** o'sishi hisobiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan importdan olinayotgan oziq-ovqat tovarlar hajmini sezilarli darajada kamayishi ta'minlandi.

Viloyatda **eksportga mo'ljallangan mahsulotlar** ishlab chiqarishni kengaytirish, hajmlari va mahsulotlar nomenklaturasini ko'paytirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha ko'rilgan qator chora-tadbirlar hamda eng muhimi kichik biznes sub'ektlariga eksport qilishlari uchun qulay sharoitlarni yaratilishi va ularni qo'llab-quvvatlanishi hisobiga amalga oshirilgan eksport hajmi **459 mln. dollarga** etdi.

**Hududiy tasarrufdagi korxonalar** tomonidan **165 mln. dollarga** teng eksport amalga oshirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **qariyb 2 marta** o'sishga erishildi.

Viloyatda 2015 yil 1 yanvar holatiga jami ro'yxatdan o'tgan horijiy investitsiyali korxonalar soni **16 taga** ortib, jami **131 tani**, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **1,1 trillion so'mni**, o'sish ko'rsatkichi **119,1 foizni** tashkil etdi.

Oxirgi 7 yil davomida viloyatga **jalb etilgan investitsiyalar hajmi 8,6 trln. so'mdan** oshdi. Birgina 2014 yilda bu ko'rsatkich qariyb **2 trln. so'mni** tashkil etgani ayniqsa e'tiborlidir.

2008 yilga nisbatan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **4,2 barobarga**, shu jumladan uning tarkibida markazlashgan investitsiyalar hajmi **5 barobarga**, tijorat banklari kreditlari **12,7 barobarga**, chet el

---

investitsiyasi **1,8 barobarga** ortgan.

Jalb etilgan investitsiyalarning qariyb yarmi sanoatni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etishga sarflandi.

**“Farg’ona viloyatini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturi”** doirasida **154,4 mln. dollar** miqdorida investitsiyalar o’zlashtirilib, **550 ta** ishlab chiqarish loyihalari foydalanishga topshirildi. Natijada **12 ming ta** ish o’rinlari yaratildi va shu loyihalar doirasida **262 mlrd. so’mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Viloyatda **engil sanoat** mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni va ishlab chiqarish hajmlarining yuqoriligi bilan respublikada etakchi o’rinlarda turadi.

Mustaqillik yillarida ushbu tarmoqqa **500 mln AQSh dollaridan** ziyod xorijiy sarmoyalar jalb etildi. Xususan, Qo’qon shahridagi “Indorama Qo’qon tekstil” O’zbekiston –Singapur qo’shma korxonasida 2010-2014 yillar davomida kalava ip ishlab chiqarishni kengaytirish ishlariga **100 mln.dollarga** yaqin investitsiyalar o’zlashtirilishi hisobiga yiliga **16,5 ming tonna** kalava ip ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi, 1000 ga yaqin yangi ish o’rinlari yaratildi.

Shuningdek, 2014 yilda Marg’ilon shahridagi “Ekspo Kollor Printeks” qo’shma korxonasi, Farg’ona shahridagi “Turon tekstil”, Uchko’prik tumanidagi “Xumo to’qimachi”, Rishton tumanidagi “Rishton to’qimachi”, Oltiariq tumanidagi “Xamza Ekspo art tekstil” korxonalari yangidan qurilib, **20 ming tonna** paxta tolasini qayta ishlash quvvatlari foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, Quva tumanida “Quva tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyat, Dang’ara tumanidagi “Musavvarteks” qo’shma korxonasi, Bag’dod tumanidagi “Fergana spinning” qo’shma korxonalarida modernizatsiya va kengaytirish ishlari amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ana shunday ishlar tufayli viloyatda birgina 2014 yilda engil sanoat korxonalari tomonidan **86 ming tonna** paxta tola qayta ishlandi. Bu esa viloyatda etishtirilayotgan paxta tolasini qayta ishlash hajmi 2008 yildagi **45 foizdan** 2014 yil yakuni bilan **100 foizga** etganini, hech shubhasiz, jiddiy o’sish sifatida baholash o’rinlidir.

Shuningdek, o’tgan yillar mobaynida viloyat yalpi sanoat mahsuloti hajmida engil sanoatning ulushi **2,5 barobarga** oshib, **26 foizga** etdi, kalava ipdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish **4 martaga** ortdi.

**Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish** hajmlarining hisoblab chiqilgan eksportning o’rnini bosish samarasi **17,2 mln. AQSh** dollarini tashkil etdi, mahalliyashtirish dasturi doirasidagi **20 ta** korxonalar tomonidan hisobot davrida **43,3 mlrd. so’mlik** mahsulotlar ishlab chiqarildi. Natijada mazkur korxonalarga **2,1 mlrd.so’mlik soliq imtiyozlari** qo’llanildi.

O’tgan davr mobaynida hududiy iqtisodiyot tarkibida etakchi o’rin egallab kelayotgan **agrar-sektorning** deyarli barcha tarmoqlarida ulkan yutuq va natijalar qo’lga kiritildi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o’z tarkibida 8590 ta fermer xo’jaliklarini birlashtirmoqda va viloyatda sug’oriladigan erlarning asosiy qismida etishtiriladigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining hajmi aynan ularning hissasiga to’g’ri kelmoqda.

Fermerlik harakatini isloh qilish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar, qishloq xo’jaligida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida keyingi yillarda viloyatda paxta, g’alla, pilla va boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlarini etishtirish rejasi ortig’i bilan bajarilganligida yaqqol namoyon bo’lmoqda.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan viloyatda tuproq unumdorligi past, suv ta’minoti og’ir va kam rentabelli bo’lgan Buvayda, O’zbekiston va Farg’ona tumanlarida paxta hamda g’alla maydonlari **16,4 ming** gektarga qisqartirilishi hisobiga sabzavot, kartoshka va boshqa turdagi qishloq xo’jaligi mahsulotlari etishtiriladigan er maydonlari 1,6 barobarga ko’paydi.

Buning hisobiga 2008 yilga nisbatan viloyatda meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari etishtirish hajmlari salkam **2 barobarga** ko’payib, viloyat aholisining ehtiyojlarini to’liq qondirish bilan bir qatorda, yiliga o’rtacha **300 ming tonna** meva-sabzavot va uzum dunyoning **19 ta** davlatlariga eksport qilinmoqda.

Shuningdek, oxirgi yillarda **700 gektardan** ortiq maydonlarida zamonaviy intensiv bog’lar tashkil etildi.

---

Intensiv bog'larni tashkil etish uchun Turkiya, Polsha, Serbiya davlatlaridan noyob meva ko'chatlari keltirilib, bugungi kunda hosilga kirgan bog'larda yiliga o'rtacha 250 tsentnerdan hosil olinayotganligi agrar sohadagi islohotlarimizning ijobiy natijasidir. **Misol uchun**, "Boxodirxon yangiariq bog'i" fermer xo'jaligi 5 ga intensiv usulda olma bog'i yaratilib, "Mirzarsul bog'i" fermer xo'jaligi 11 ga intensiv usulda olma va nok bog'ini yaratilib, nixollar xosilga kira boshladi.

Yana bir muhim yo'nalish sifatida etishtirilgan meva-sabzavotni saqlash borasida zamonaviy sig'implarni ko'paytirishga qaratildi. O'tgan davr mobaynidat **30 ming tonnadan** ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashga mo'ljallangan sovutish sig'implar ishga tushirilib, ularning umumiy hajmi **45 ming tonnadan** ortdi. **Misol uchun**, "Mamatqul xojiobod" fermer xo'jaligi 1000 tn va "Roxatoy" fermer xo'jaligi 500 tnlik suvutgichlarni ishga tushirib, meva-sabzavot mahsulotlari zahirasini yaratdilar.

Bu o'z navbatida aholini qish-bahor mavsumida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz va barqaror narxlarda ta'minlashga xizmat qilmoqda.

**Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish maqsadida sug'oriladigan erlarini meliorativ jihatdan yaxshilash** uchun markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobidan 110,1 mlrd.so'm mablag' yo'naltirildi. Ajratilgan mablag'lar doirasida 2008-2014 yillarda 125,1 ming km kollektor drenaj tarmoqlari qurilgan va rekonstruksiya qilingan, 10,5 ming km. ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.

Ushbu tadbirlarning bajarilishi natijasida jami 247 ming 400 gektar sug'oriladigan maydonlarning **110 ming gektari, yoki qariyb 45 foizining** meliorativ holati yaxshilandi.

**Misol uchun, Osiyo taraqqiyot banki** tomonidan "Suv resurslarini boshqarish" Farg'ona va Zarafshon vodiysida 60 ming gektar erlarni meliorativ holatini yaxshilash" loyihasiga 2011 - 2014 yillar mobaynida 18,2 mln.dollar va 43,9 mlrd.so'm, **Halqaro rivojlantirish uyushmasi** tomonidan "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish (Faza-1)" **48 ming** gektar erlarni meliorativ holatini yaxshilash loyihasiga 2011 - 2014 yillar mobaynida **29,8 mln.dollar** va **39,2 mlrd.so'm** mablag'lar o'zlashtirildi.

Ana shunday amaliy ishlar natijasida keyingi etti yil ichida paxta hosildorligi **23,6 tsentnerdan 28,0 tsentnerga**, g'alla hosildorligi **56,5 tsentnerdan 60,4 tsentnerga** oshishiga erishildi.

Bu yil viloyatimiz Paxtakorlari mavsumni noqulay va murakkab kelishiga qaramasdan, birinchi navbatda ko'p yillar davomida to'plangan tajriba va zamonaviy agrotexnikani samarali qo'llashlari va boshqa turli muammolarni bartaraf etishlari, eng muhimi dehqon-fermerlarimizning fidokorona mehnati evaziga **280 ming tonnadan** ziyod ulkan xirmon bunyod etib, katta mehnat g'alabasiga erishdilar.

**Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan vazifalardan yana biri - infratuzilmani yaratish, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishdan iborat.**

Viloyatda 2014 yilda **431 ta** qishloq ko'chalaridagi **163,8 km.** ichki yo'llar va **6 ta** chegaradosh tumanlarning **64 ta** ko'chalaridagi **42,2 km.** ichki yo'llar hamda **14,5 km.** umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilindi.

Shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan **28,9 km.** Davlat ahamiyatidagi avtomagistrallar rekonstruksiya qilindi. Jami ushbu ishlarga **70 mlrd.so'mga** yaqin davlat mablag'lari sarflandi.

Albatta, bu kabi yo'llarda olib borilayotgan qurilish ishlari yo'l bo'yidagi infratuzilmalarni rivojlantirishga va yangi ish o'rinlarini yaratilishiga ham katta zamin bo'lmoqda.

O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l infratuzilmasi va servisini rivojlantirish chora-tadbirlari doirasida "**Toshkent-O'sh**" avtomagistral yo'l bo'yida **2010-2014 yillarda jami 14 ta** infratuzilma ob'ektlari, jumladan, kemping, avtomobillarga siqilgan gaz to'ldirish, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, avariya chaqiruv shahobchalari, tibbiy yordam va sanitariya gigena punktlari tashkil etildi.

**Aholini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 94 ta qishloqlarga 48 ta quduqlar qazilib, 10 ta quduqlar ta'mirlandi, 75 ta yangi nasoslar o'rnatildi va 79 km ichimlik suvi tarmoqlari tortildi.**

Bu kabi ishlarni amalga oshirilishi hisobiga **140 mingdan ortiq aholining toza ichimlik suvi ta'minoti**

---

**yaxshilandi.**

Aholini ichimlik suvi ta'minoti va oqava suvlar tizimidan foydalanishda **xalqaro moliyaviy institutlar mablag'laridan** foydalanish tadbirlar faol davom ettirilmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan **Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida** Qo'qon va Andijon shaharlari suv ta'minoti va oqava suv tizimlarini hamda Farg'ona, Marg'ilon shaharlari va Rishton tuman markazi suv ta'minoti tizimlarini rekonstruktsiya qilish loyahasini amalga oshirish ishlari jadal olib borilmoqda. Jumladan, Qo'qon shahrida Mingtut suv inshootida **2 ta** 10 ming kub. metrlik suv saqlash inshooti, 35 kVli elektr tarmog'i qurilishi va ikkinchi ko'tarma nasos stantsiyasini rekonstruktsiya ishlari bajarildi. Tulyash va Muqimiy suv inshootlari va Oqava suv tozalash inshootida qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Shuningdek, loyihadagi **117 ta** ko'chalarda **96 km.** suv ta'minoti va oqava suv tarmoqlari qurish ishlari bajarildi. Ushbu ishlarga **41 mln. AQSh dollari sarflandi.**

2014 yilda **elektr energiyasi ta'minotini** yanada yaxshilash maqsadida **22,2 mlrd. so'mlik** qurilish vata'mirlash ishlaribajarildi. Jumladan, **8,6 ming km.** elektr tarmoqlari va **2300 dona** transformatorlar ta'mirlandi, **96 dona** transformatorlar katta quvvatlisiga almashtirildi. Farg'ona shahridagi **2 ta** podstantsiya rekonstruktsiya qilindi, Qo'qon shahridagi podstantsiya kengaytirildi hamda Marg'ilon shahri va Qo'shtepa tumanida **1 ta** yangi podstantsiya qurilishi yakunlanmoqda. Natijada **187 ming nafar** aholining elektr ta'minoti yaxshilandi.

**Tabiiy gaz ta'minotini** yaxshilash maqsadida **6,1 mlrd. so'mlik** qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi. Jumladan, **49 ming dona** suyultirilgan gaz ballonlari sotib olindi, aholiga **21 ming tonna** suyultirilgan gaz etkazib berildi. Shuningdek, **9,6 km.** gaz quvurlari mukammal ta'mirlandi, **10 km.** gaz quvurlari rekonstruktsiya qilindi.

**Quva va Uchko'prik** tumanlarida maishiy gaz ballonlariga suyultirilgan gaz to'ldirish punkti (*GNP*) va **Farg'ona tumani** Mindon qishlog'ida **400 ta** gazballoniga mo'ljallangan servis markazi qurilishi yakunlandi.

Suyultirilgan gaz ballonlari tashib kelish va tarqatish uchun **7 ta** "Isuzu" hamda **6 ta** "MAN" maxsus texnikalari sotib olindi.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan viloyatda **Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylar qurilish Dasturi ijrosi ta'minlanib**, 2009-2014 yillarda davomida **3802 ta**, jumladan 2014 yilda **927 ta** uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu degani viloyatdagi 4 mingtaga yaqin oilalar shinam va qulay uylar bilan ta'minlandilar.

2014 yil davomida viloyatda **axborot kommunikatsion texnologiyalarni jadal rivojlantirish** ishlari izchillik bilan davom ettirildi. Xususan, viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti [www.ferghana.uz](http://www.ferghana.uz) - O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari talablari asosida modernizatsiya qilindi. Hozirda viloyat hokimligi rasmiy veb-sayti orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga **25 ta** va O'zbekiston Respublikasi "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali esa **13 ta** interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda.

So'x radio televizion stantsiyasiga va Lenburg radio televizion stantsiyasiga raqamli teleuzatkichlar o'rnatildi. Farg'ona tumani Log'on radio televizion stantsiyasiga kam quvvatli radiouzatkich yuqori quvvatlisiga almashtirildi va qamrov hududi kengaytirildi. Shuningdek, Chimyon radio televizion stantsiyasiga teleuzatkich o'rnatilib, "Sport" telekanali hamda "O'zbekiston" radiosi dasturlari efirga uzatilmoqda.

Ushbu yo'nalishda 2015 yilda **3,1 mlrd. so'mdan ortiq** mablag'lar o'zlashtirilishi hisobiga keng polosali optik tarmoqlarni rivojlantirish uchun **30 km**, magistral telekommunikatsiya tarmog'ini kengaytirish uchun **30 km.** optik tolali aloqa liniyalari quriladi.

Bundan tashqari, CDMA-450 standartida Uzmobayl mobil aloqa tarmog'ini kengaytirish borasida hududlarda **17 ta** baza stantsiyalari o'rnatiladi. Raqamli televideniya qamrovini yanada kengaytirish borasida **5 ta** raqamli teleuzatkichlar o'rnatiladi.

**Ushbu amalga oshirilgan ishlar chegara hududlari aholisini O'zbekiston telekanallari va radio eshittirishlarini barcha aholiga bir hilda etkazib, turli hil bizning tizimimizga yod bo'lgan tele**

---

**va radio kanallarini efrida uzatilishini oldini olishga qaratilgan.**

Sir emaski, iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini saqlash va jadal rivojlantirishni kichik biznes sub'ektlarini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Lekin, haligacha ko'plab davlat idoralari, tashkilotlar va tizimlar tomonidan kichik biznes sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish, ularning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlarini poymol qilish holatlari hali to'liq bartaraf etilmagan. Ushbu masala yuzasidan Adliya boshqarmasi boshlig'i Mirxayot Nazaraliev kengroq to'xtalib o'tadi.

Viloyat nazorat qiluvchi idoralari va boshqa rahbarlarga Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning Vazirlar Mahkamasida o'tkazilgan majlisidagi bir fikirlarini eslatib o'tmoqchiman.

**“Tadbirkorlik sub'ektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim”** deb takidladilar.

Shuning uchun, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlar va cheklashlarni bartaraf etish, bu borada to'liq erkinlik berish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish maqsadida viloyat hokimining farmoyishi bilan Adliya boshqarmasi boshlig'i rahbarligida alohida Ishchi guruh tashkil etildi.

Ishchi guruhiga tadbirkorlik sub'ektlari va xususiy mulk egalari faoliyatiga noqonuniy aralashishlarga barham berish va uning oldini olish, ularning huquq va kafolatlarini qonuniy himoya qilish asosiy vazifa etib belgilandi.

**Davlat mulkidan oqilona va samarali foydalanish** bo'yicha ham viloyatida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, keyingi yillarda **44 ta** davlat aktivlari “nol” qiymatda **150 mlrd. so'm** miqdorida investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan tadbirkorlik sub'ektlariga sotilgan.

Davlat mulki ob'ektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari asosida **29 ta** hozirda foydalanilmayotgan, yaroqsiz davlat mulki ob'ektlari to'liq buzilib, bo'shagan er maydonlari tadbirkorlarga ajratib berildi.

**11 ta** ob'ektlar o'rnatilgan tartibda ommaviy savdolarga chiqarilib, shundan **9 ta ob'ektlar** sotildi.

Ishlab chiqarish tashkil etish, investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan **7 ta** ob'ekt “Nol” qiymatda sotildi.

Ushbu ob'ektlarga **27 mlrd. so'm** va **704 ming AQSh dollari** miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, minga yaqin yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlari va ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada optimallashtirish chora-tadbirlariga asosan **11 ta** davlat ob'ektlar tadbirkorlik sub'ektlariga sotildi.

2017-06-17 17:40:00